



UMUMTA'LIM MAKTABLARINING IJTIMOIIY-MADANIY VA MA'RIFIY SOHASI PEDAGOGIK FENOMEN SIFATIDA

Kurbanova A.O'.

Pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Bo'riyeva F.B.

Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: klaster, texnologiya, soha, umumta'lim, maktab, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, yondashuv, ta'lim muassasalari, raqobatbardosh, innovatsion, texnik, sanoat, loyiha, estetik tarbiyalash, axloq-odob, axloqiy va tarbiyaviy, xulq-atvor, ta'lim muassasalari, qobiliyat, ziddiyat, dunyoqarash, etuk shaxs, hamkorlik qilish.

Ключевые слова: кластер, технология, сфера, общее образование, школа, социальный, культурный, образовательный, подход, образовательные учреждения, конкурентоспособный, инновационный, технический, производственный, проектный, эстетическое воспитание, этический, морально-воспитательный, поведенческий, образовательные учреждения, способности, конфликт, мировоззрение, зрелая личность, сотрудничество

Key words: cluster, technology, sphere, general education, school, social, cultural, educational, approach, educational institutions, competitive, innovative, technical, production, design, aesthetic education, ethical, moral and educational, behavioral, educational institutions, abilities, conflict, worldview, mature personality, cooperation

Dunyo hamjamiyatining globallashuv sari borayotgan hozirgi davrida umumiy o'rta ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumiy o'rta ta'limda ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda o'quvchilar dunyoqarashini rivojlantirish YUNESKO, Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi (AQSH), uzluksiz ta'lim instituti (Rossiya), European University Institute, Max Plank Institute kabi tadqiqot markazlarining ilmiy natijalari alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, modellashtirish, tadqiq etish dolzarbligicha qolmoqda.

Jahonda ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda umumta'limning davlat ta'lim



standartini tasdiqlash maktab oldiga avvalgidan ko‘ra sifat jihatidan yangi, beqiyos murakkab vazifalarni qo‘yadi. Ta‘lim - tarbiya jarayoniga klasterli yondashuvni joriy etish qo‘shimcha ta‘lim xizmatlari ko‘lamini kengaytirish orqali o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatning yanada rivojlangan tizimini yaratishni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida maktabning ochiq jamiyatda keng doiradagi muassasalar va tashkilotlar bilan ijtimoiy sheriklik va o‘zaro tarmoq hamkorligini rivojlantirishni talab qiladi. Ta‘lim oluvchi shaxs atrofida maktabning yagona ijtimoiy-madaniy va ma‘rifiy sohasini rivojlantirish uning ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada oshirish va uning qiziqishlari, moyilliklari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual ta‘lim trayektoriyasini qurishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham barcha sohalar qatori umumiy o‘rta ta‘limni ham tubdan isloh qilishga katta e‘tibor qaratilyapti. 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu esa, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarni qobiliyatlarini va dunyoqarashini rivojlantirish, umumiy o‘rta ta‘limning ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarini yanada takomillashtirish, texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz umumtalim maktablari tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari va islohatlari, zamonaviy bilim va ko‘nikmaga ega kadrlarni yetishtirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda umumtalim maktablarida ijtimoiy-madaniy muhitni tashkil etish va boshqarishda tarbiyaning yaxlitligi va tarbiyaning tizimliliigi jarayoniga e‘tibor berilmoqda. Tarbiyaning yaxlitligi bolani tarbiyalash va o‘qitish jarayonlarining, shuningdek, o‘quvchilarning jamiyat talablari asosida kamolotga yetkazish va shakllantirishga qaratilgan maqsadning ajralmas biriligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson tarbiyasiga qo‘yiladigan, uning hayotida yuzaga keladigan talablar darajasi o‘rtasidagi ziddiyatlarni bo‘nda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Zamonaviy umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma‘rifiy sohasi tarmoqlangan, tarmoq o‘zaro ta‘sir sharoitida shakllangan, integrativ umumiy birlikka ega bo‘lgan, murakkab boshqariladigan ijtimoiy-madaniy va ma‘rifiy klasterdan iborat. Klasterli ta‘lim sharoitida xususiy va davlat sherikchiligida kadrlar tayyorlashga qaratilgan tarmoq o‘zaro hamkorlik samarasi uning qanday boshqarilishiga nazariy jihatdan bog‘liq. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining

yagona ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasi yagona makonda ma'lum bir hududning o'ziga xos muammolarini hal qiladigan va uning imkoniyatlaridan foydalanadigan mahalliy ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy klaster vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha tushunchasi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'rganib chiqilgan. Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, olimlar ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani har bir shaxsning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlaydigan maxsus va refleksiv tashkil etilgan elementlar to'plami, o'quvchilar va o'qituvchilarning shaxsiy va ijodiy rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar tizimi, shaxsni rivojlanishi, ta'lim va tarbiya muhiti sifatida ko'rib chiqadilar. Gatalskiy V.D., Abdrakipova G.R., Gladchenkova N.N., Kondratyeva Y.A., Makarenko Y.V., Nichipurenko I.M., Usataya N.V., Shigaleva N.V. va boshqalarning tadqiqot predmeti ijtimoiy madaniy va ma'rifiy soha hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani shaxsni rivojlantirish manbai bo'lib xizmat qiladigan hayotiy va kasbiy vazifalarni muvofaqiyatli hal etish xizmat qiladi.

I.Y.Murzina mintaqaviy ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani hududiy jihatdan mustahkam bog'langan va o'zaro ta'sirga ega bo'lgan tizimlarning alohida klasteri deb ta'kidlaydi. Mintaqaviy madaniy - ma'rifiy soha murakkab tashkil etilgan voqelik bo'lib, uning asosiy komponentlari madaniyat va ma'rifat sohalari egallaydi, mintaqadagi inson faoliyati jarayonini faollashtiradi va aholining o'ziga xos xususiyatlarini hamda turmush tarzini belgilab beradi.

I.Y.Murzinaning fikricha, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha shaxsning ongida u yaxlit idrok qilinadi, tashkiliy va institutsional tomondan esa diskret, porsiyali, ya'ni muassasalar o'zaro zaif bog'langan degan nomuvofiqlikni ko'rsatadi.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari pedagog zimmasiga ma'naviy va ma'rifiy javobgarlikni yuklaydi, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z "Men"ining ma'nosini aniqlashi, o'zida qanday ma'naviyatni yaratishi va uni o'quvchilarga faol yetkazishi kerak.

U.N.Xodjamqulovning fikricha, Klaster yondashuvi universallik xarakteriga ega bo'lib, uning ta'lim jarayoniga tatbiq qilinishi uzluksiz ta'lim tizimida mavjud tarqoqlikni bartaraf qilish, ta'lim turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish, uzviylik va uzluksizlikni qaror toptirish, o'zaro raqobat va nazorat muhitini shakllantirish, pedagogik sohada samarali vorisiylikni ta'minlovchi yaxlit tizimni yaratishga asos bo'ladi.

Sh.N.Taylakov esa, OAVda umumiy o'rta ta'lim o'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan mavzular samaradorligini oshirish jarayoni



o'quvchilarning media savodxonligini rivojlantirish, kontentning ma'naviy ehtiyojlar va yosh hususiyatlariga mosligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg'unligi kabi media pedagogik talablarni tadqiqqilgan, shuningdek o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan teleko'rsatuv va radio eshittirishlarning mazmunidan tarbiyaviy jarayonlarda foydalanish metodlari (suhbat, davra suhbat, videolektoriy, media haftaliklar) optimal media pedagogik resurslarni ishlab chiqqan. Yuqoridagilar bilan birga Sh.N.Taylakov ta'lim muassasalari, o'quvchilar va ota-onalar bilan media muloqotlar vositasida o'quvchi-yoshlar ma'naviyatiga tahdid solayotgan zararli media mahsulotlar ta'siriga qarshi kurashishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli ishlab chiqqan.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlab, biz umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasini rivojlantirish jarayonini pedagogik fenomen sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasi o'quvchilarning ta'limiy va madaniy hamda dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarini samarali o'tkazish imkoniyatlarini yuqori darajada ta'minlaydigan pedagogik loyihalash va maqsadli boshqaruvni rivojlantirish obyekti bo'lishi mumkin degan xulosaga kelamiz.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2021. –B. 465.
2. Murzina I.Y. Konsepsiya razvitiya regionalnogo kulturno-obrazovatel'nogo prostranstva / I. Y. Murzina // Chelovek v mire kul'turi. - 2013. - № 3.
3. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari // p.f.d. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Chirchiq, 2020. – 60 b
4. Taylakova Sh.N. O'quvchi-yoshlar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish (teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar va internet xabarlarini misolida) p.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: -2018. -50 b.

РЕЗЮМЕ

Yoshlarini ma'naviy, axloqiy-estetik va jismonan sog'lom, barkamol etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya berish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida olib borilgan islohotlar natijasida o'quvchilarda xalqimiz ma'naviyati, milliy qadriyatlarini targ'iboti uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari, texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Vatanga sodiq, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazarga ega yoshlarni tarbiyalashning ustuvor vazifalari belgilangan bo'lib, bu borada ommaviy madaniyatga qarshi kurashish mexanizmlarini yanada rivojlantirish, o'quvchilarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

РЕЗЮМЕ

В результате проведенных реформ в целях воспитания молодежи духовно, нравственно, эстетически и физически здоровой и совершенной, поднятия системы образования на новый уровень, содержательной организации свободного времени молодежи, учащейся молодежи нашей стра-



ны, есть появляются необходимые условия для пропаганды духовности, национальных ценностей, необходимость эффективного использования образовательных возможностей и технологий. Определены приоритетные задачи «воспитания молодых людей, преданных Родине, самостоятельных мыслителей, имеющих твердый взгляд на жизнь», и в этой связи дальнейшее развитие механизмов борьбы с массовой культурой, совершенствование процесса. Большое значение имеет идейно-эстетическое воспитание студентов.

SUMMARY

As a result of the reforms carried out in order to educate young people spiritually, morally, aesthetically and physically healthy and perfect, raising the education system to a new level, meaningful organization of free time for young people, students of our country, there are necessary conditions for promoting spirituality, national values, the need for effective use of educational opportunities and technologies. The priority tasks of “raising young people devoted to the Motherland, independent thinkers with a strong outlook on life” have been identified, and in this regard, further development of mechanisms for combating mass culture, improvement of the process. The ideological and aesthetic education of students is of great importance.